

O`ZBEKISTONDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO`NALISHLARI ISTIQBOLLARI

Bayzakova Dilbar Fayziyevna¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada O`zbekistonda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar orqali iqtisodiyotning barqaror o'sishi, kichik va o'rta biznesning o'rni, mamlakatimizda uni rivojlantirish uchun yaratilayotgan yangi imkoniyatlar va davlat tomonidan qo'llab quvvatlanishi bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Tadbirkorlik, kichik biznes, o'rta biznes, iqtisodiy islohotlar, oilaviy tadbirkorlik, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, aholi bandligi.

Milliy iqtisodiyotda muhim o'rinni egallab borayotgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini yanada rivojlantirish hamda bu orqali ichki bozorni raqobatbardosh, sifatlari va eksportbop mahsulotlar bilan to'ldirish, yangi ishlari yaratish hamda buning asosida aholi daromadlarini ko'paytirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash borasida ahamiyatga molik ishlari amalga oshirilmoqda.

Shu bilan bir qatorda, bu soha davlat byudjetiga soliq to'lov tushumlari hajmining ko'payishi va iqtisodiy rivojlanishning asosiy ko'rsatkichi hisoblangan yalpi ichki mahsulot salmog'inining o'shishiga asosiy turtki bo'lmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati jamiyatimizdagi ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy barqarorlikning tayanchiga hamda asosiy kuchiga aylanib bormoqda.

Hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda. Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko'p mablag' talab etmaydigan xo'jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur'atlarini ta'minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste'mol bozorini shakllantirish va uni to'ldirish muammosini tez hamda tejamli tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste'mol talabining o'zgarishiga darhol moslashadi va shu yo'l bilan iste'mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta'minlaydi.

Hozirgi paytda ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o'rinni tutmoqda.

Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni yil sayin ortib borayotgani sohaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi. Bu narsa shu bilan bog'liqki, kichik biznes tizimi ichida mukammal taqsimot tizimining yaratilishi natijasida markazlashgan va rezerv fondlarining tashkil etilishi orqali kengaytirilgan takror ishlab chiqarish imkoniyatlarining yanada mustahkamlanishiga erishish hamda turli soliq imtiyozlarining qo'llanilishi maqsadida kichik biznes kelgusi taraqqiyoti uchun qulay iqtisodiy sharoitlar yaratiladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning aholini ish bilan band etishi va o'rta sinfi shaklantirishi kabi xususiyatlari xorijiy iqtisodiy adabiyotlarda batafsil yoritilgan. Rivojlangan

¹ Jizzax politexnika instituti "Iqtisodiyot va menejment" kafedrasi katta o'qituvchisi dilbardilbar.bayzakova@gmail.com

mamlakatlar tajribasidan ma'lumki, kichik korxonalar iqtisodiy rivojlanish, ilmiy-texnika ixtiolarini, aholining talabini qondirish uchun qo'llashda istiqbollidir.

Boshqarish sohasida kichik korxonalarda eng kam xarajat qilinishi bilan birga mulk haqiqiy egasining qo'lida bo'lib, undan foydalanish, ko'paytirish doimo yaxshi natijalarga olib kelgan.

Kichik biznes subyektlarining to'la erkinligini ta'minlash va ular faoliyatini rag'batlantirish lozim. Jahon iqtisodiyotida kichik biznes ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda, yangi ish o'rinalarini barpo qilishda, bozor o'zgarishlariga nisbatan tez moslashishda va mulkdorlar sinfini shakllantirishda alohida ahamiyatga va yuqori samaradorlikka ega ekanligi tasdiqlanmoqda.

Bir qator mamlakatlarda kichik biznesning iqtisodiyotda tutgan o'rniga, uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi va bozor munosabatlarini shakllantirishdagi ahamiyatiga alohida e'tibor berilmoqda. Shu nuqtai-nazardan bozor iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarning kichik biznesni moliyalashtirish yuzasidan tajribalarini atroflicha o'rganish va samarali bo'lgan usullarni milliy iqtisodiyotning xususiyatlarini hisobga olgan holda joriy qilish bosh masaladir. Bu esa, o'z navbatida, O'zbekistonda kichik biznes loyihibarini moliyalashni takomillashtirishga ham xizmat qiladi.

Respublikamizning iqtisodiy taraqqiyoti, iqtisodiy mustaqilligi, xalqining faravon turmush darjasasi, qolaversa mehnat resurslarining ish bilan banddir darjasasi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivoji bilan bog'liqdir. Bu holat esa korxonalarning iqtisodiy erkinligini rag'batlantirish darjasasi rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Istiqbolda iqtisodiyot tarmoqlarida ham o'zgarishlar yuzaga keladi. Bu holat ham kichik tadbirkorlikning rivojlanishi asosida ro'y beradi.

Umumiyo sanoat mahsulotini ishlab chiqarishda istiqbolda o'zgarishlar sanoat sohasiga talab natijasida sodir bo'ladi, shuningdek, qishloq xo`jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi kichik korxonalarning rivojlanish hisobiga bu soha yanada yuksaladi. Savdo aylanmasining to`liq muvofiqlashuvi natijasida bu sohada ko`rsatkich ulushi pasayishi sodir bo'ladi.

Respublikamizda kichik korxonalar tomonidan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishini yaratilgan imkoniyatlardan faollik bilan foydalanish evaziga ta'minlash mumkin.. Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi iqtisodiy faoliyat jarayonlari va uning natijalarini aks ettiruvchi ko`rsatkichlarda kichik biznes ulushining yuqori bo`lishiga ham bog'liq ekanligi shubhasizdir. Kam xarajat hisobiga yangi ish o'rinalari yaratish imkoniyati, yirik biznes kirib bora olmaydigan bozor segmentlarini egallay olish qobiliyati, ayniqsa, xizmat ko`rsatish sohasi va uncha katta bo`lmagan mahalliy resurs bazalarini o'zlashtirishda juda qulay tashkiliy shakl ekanligi kichik biznesni rivojlantirishning ahamiyati beqiyosligini ko`rsatadi. Shu sababli ham kichik biznesni jadal rivojlantirish masalasi mahsulot ishlab chiqarishni mahalliylashtirish, xizmat ko`rsatish sohasini rivojlantirish, shuningdek, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish masalalari bilan chambarchas bog'langan.

Ta`kidlash joizki, kichik biznesda tadbirkorlik faolligini oshirish uchun quyidagi umumiyo sharoitlar ta'minlashi zarur:

- milliy iqtisodiyotda makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash negizada uni barqaror rivojlanishini ta'minlash;
- iqtisodiyotda raqobat muhiti shakllanishini ta'minlash;
- kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimi, uning mexanizmlarini takomillashtirish asosida rivojlantirib borish;
- kichik biznesga xizmat ko`rsatuvchi infruzulmalarni samarali harakat qilishini ta'minlash.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlari quyidagilardan iborat:

- kichik biznesning huquqiy-me`yoriy va tashkiliy asoslarini iqtisodiyotda turli omillar ta`sirida ro'y berayotgan o'zgarishlarga mos ravishda uzluksiz takomillashtirib borish;



- davlat tomonidan kichik biznes va huquqiy tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash mexanizmlarini samaradorligini oshirish, bu borada xorijiy mamlakatlar tajribasidagi yangi mexanizmlarni mavjud sharoitlarga moslashtirgan holda amaliyotga qo`llash;
- kichik biznesning innovatsiya negizida rivojlanishini ta`minlash borasida chora - tadbirlarni ishlab chiqish;
- kichik biznesni moliyaviy jihatdan ta`minlash mavjud mexanizmlar samaradorligini oshirish va moliyalashtirishirishning yangi manbalarini harakatga keltirish negizida qulay investitsiya muhitini yaratish;
- kichik biznesda ishlab chiqarishni tashkil etishning moddiy ta`minotini takomillashtirish;
- kichik biznesni tashqi iqtisodiy faoliyat mexanizmlarini takomillashtirish;
- kichik biznes sohasi uchun malakali raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash;
- kichik biznesda kooperatsiyani chuqurlashtirish.

Kichik biznesni ushbu yo`nalishlarda olib boriladigan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda kichik biznesni rivojlantirish borasida xorijiy tajribani o`rganish va uni mamlakatimiz sharoitlariga tatbiq etish muhimdir.

Kichik biznes subyektlarining tashqi iqtisodiy aloqalarga kirishishida savdo vositachilari ko`mak beradi, hamda hamkorlar va xaridor topishga dastlabki imkoniyat yaratiladi. Kichik biznesning mamlakat iqtisodiyotida tutgan o`rnidan kelib chiqqan holda va ushbu sohada sifat o`zgarishlariga erishish uchun dasturning bosh maqsadi: kichik biznes sohasini kengaytirish va samaradorligini oshirish asosida ushbu sektorni barcha tomonidan e`tirop etilgan vazifalarini to`liq bajarishni ta`minlash va rivojlantirishida yangi sifat bosqichiga o`tishini ta`minlashdan iborat. Kichik biznesning rivojlanipshni jadallashtirish negizida uni yalpi ichki mahsulotdagi hissasini 66,1 foizga yetkazish.

Kichik biznes tadbirkorlik faoliyatini oshirishda davlat tomonidan qo`llab-quvvatlash samarasini oshirish maqsadida dasturda ushbu yo`nalish quyidagilarni amalga oshirishi lozim:

- davlat organlari, tadbirkorlarning jamoat tashkilotlari va tijorat tuzilmalari bilan hamkorligini ta`minlovchi mexanizmni takomillashtirish;
- raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga mo`ljallangan investitsion loyihalarni amalga oshirish, eksport hajmini oshirish, mahalliy xom-ashyo resurslaridan foydalanishni yaxshilash, qo`shimcha ishchi o`rnlarni tashkil etishga ko`maklashish;
- doimiy faoliyat ko`rsatadigan ko`rgazma va texnologik uskunalar, mini texnologiyalar yarmarkalarini tashkil etish;
- kichik biznes sub`ektlarining moliyaviy resurslardan foydalanish imkoniyatlarini yaratish;
- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishdan iborat.

Dasturda kichik biznesni innnovatsiya asosida rivojlanishini ta`minlash quyidagilarni o`z ichiga qamrab oladi:

- texnologik jarayonlarni doimiy yangilab borish asosida mahsulot sifatini oshirish va resurslarning tejalishiga olib keluvchi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish mezanzmini takomillashtirish;
- innovatsiyalarni xarid qilish va undan ishlab chiqarishda foydalanish amalga oshirish mexanizmini sifatida yaratilgan innovatsiyalarni tanlov asosida imtiyozli ravishda kichik korxonalarga sotish;
- qisqa davrda ishlab chiqarishda aslida ko`llash mumkin bo`lgan innovatsion ishlanmalarni davlat tomonidan ishlab chiqaruvchilarni jalb etgan holda moliyalashtirishni tashkil etish;
- innovatsion tadbirkorlikni qo`llab-quvvatlash.



Foydalilanigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.PQ-366-son.15.11.2023.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.PQ-306 son,14.09.2023.
3. O'zbekiston Respublikasi. Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2023 yil 18 avgustda tadbirkorlar bilan o'tkazgan Ochiq Muloqoti.Xalq so'zi gazetasi,2023 yil,19
4. Bayzakova, D. F. (2023). O'ZBEKİSTONDA İQTİSODİY O'SİSHNI TA'MİNЛАŞHDA MAKROIQTİSODİY KO'RSATKİCHLARNING O'RNI. Экономика и социум, (5-2 (108)), 64-66.
5. Bayzakova, D. F. (2023). O 'ZBEKİSTONDA KİCHİK BİZNES VA XUSUSIY TADBİRKORLIK FAOLİYATINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(3), 846-850.
6. Bayzakova, D. F. (2024). O'ZBEKİSTONDA OİLAVİY TADBİRKORLIKNING RIVOJLANTIRILISHİ. Экономика и социум, (2 (117)-1), 215-217.
7. Bayzakova, D. F. (2024). O 'ZBEKİSTONDA KİCHİK VA O 'RTA BİZNESNI RIVOJLANTIRISH UCHUN YARATILAYOTGAN YANGI IMKONİYATLAR. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 39-42.
8. Bayzakova, D. F. (2024). O 'ZBEKİSTONDA TADBİRKORLIK KO 'NIKMALARİ VA MUNOSABATLARINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 43-48.
9. Bayzakova, D. (2021). THE IMPACT OF ENTREPRENEURSHIP AND INNOVATION ON THE ECONOMY. Экономика и социум, (12-1 (91)), 135-138.
10. Bayzakova, D. (2021). Supply chain business processes in the example of business incubators. Экономика и социум, (5-1 (84)), 80-83.
11. Байзакова, Д. Ф., Умарова, З. О., & Даминова, Ш. Ф. (2015). РАЗВИТИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ИННОВАЦИЙ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Педагогические науки, (6), 10-12.
12. Байзакова, Д. Ф., & Умарова, З. О. (2018). Роль педагогических коллективов в воспитании современной молодёжи. Молодой ученый, (8), 115-117.
13. Baizakova, D. F., & Obidova, F. Y. (2018). DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Modern humanities research, (3), 51.
14. Axmedova, Y. S., & Shaldarbekova, A. B. (2024). JAMOAGA MOSLASHTIRISH PERSONALNI BOSHQARISHDA BIR OMIL SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 445-447.
15. Sunatullayevna, A. Y., & Jalol o'g'li, T. J. (2024, February). ZAMONAVIY MENEJER MODELINI YARATISH MASALASI HAQIDA. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 32-34).
16. Ахмедова, Ю. С. (2023). Инвестициялар-Иктисодиётни Модернизациялашнинг Бош Омили. Barqarorlik Va Yetakchi Tadqiqotlar Onlayn Ilmiy Jurnalı, 3(1), 226-229.
17. Axmedova, Y. S. (2024). INVESTITSIYA LOYIHALARI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING MAZMUNI VA MOHIYATI. Educational Research in Universal Sciences, 3(2), 521-524.



18. Odilovna, U. Z., & Yangiboyevna, N. Z. (2023). NEFT-GAZ TARMOG 'IDA XALQARO MARKETING STRATEGIYASINI RIVOJLANТИRISH. In Past and Future of Medicine: International Scientific and Practical Conference (Vol. 4, pp. 25-33).
19. Odilovna, U. Z., & Pavlovna, S. E. (2024). STRATEGY FOR SUPPORTING SMALL BUSINESSES AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 219-224.
20. Yahyoyevna, O. F. (2024, February). RESPUBLIKAMIZDA AHOLI BANDLIGI MENEJMENTI MASALALARINI ISTIQBOLLARI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 25-31).
21. Yahyoyevna, O. F., & Tatulovna, Z. M. (2024). ISSUES OF PROVIDING ECONOMIC STABILITY UNDER THE INFLUENCE OF FACTORS OF SAVING. JOURNAL OF EDUCATION, ETHICS AND VALUE, 3(1), 374-379.
22. Umarova, Z. O., & qizi Nurboyeva, Z. Y. (2024). IQTISODIY RIVOJLANISH SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNI BOSHQARISH. Educational Research in Universal Sciences, 3(1), 108-113.
23. Obidova, F. Y., & Umarova, Z. O. (2021). IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA INNOVATSION LOYIHALARNING O'RNI. Global Science and Innovations: Central Asia (см. в книгах), 3(7), 25-29.
24. Norboyeva, D. D. (2023). ZAMONAVIY SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SALOHIYATINI BOSHQARISH. Educational Research in Universal Sciences, 2(8), 167-171.
25. Норбоева, Д. Д. (2019). МЕТОДЫ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЕМ В ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СФЕРЕ. Экономика и социум, (9 (64)), 204-207.
26. Норбоева, Д. Д. (2019). КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЯ. Экономика и социум, (9 (64)), 208-210.
27. Darvishaliyevna, N. D. (2023). MAMLAKATIMIZDA KICHIK BIZNES VA TADBIRLIKNI RIVOJLANТИRISH HAMDA YANGI ISH JOYLARINI YARATISHNING MUHIM OMILI SIFATIDA. BOSHQARUV VA ETIKA QOIDALARI ONLAYN ILMUY JURNALI, 3(5), 68-72.
28. Meliboyeva, G. S., & Jasur, A. (2023, April). MEDICAL PROPERTIES OF FRUITS AND IMPORTANCE IN HUMAN LIFE. In International Conference on Research Identity, Value and Ethics (pp. 90-93).
29. Аверин, А. Ю., & Валиханова, М. К. (2023). СУЩНОСТЬ СИСТЕМЫ МЕНЕДЖМЕНТА КАЧЕСТВА НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ И ЭТАПЫ ИХ РАЗВИТИЯ. Экономика и социум, (11 (114)-1), 524-527.
30. Saidahmedova, D. S., & Valixanova, M. (2023). QURILISH KORXONALARIDA SIFAT MENEJMENTI TIZIMINI JORIY QILISH-DAVR TALABI. Экономика и социум, (5-2 (108)), 330-334.
31. Usmanova, S. (2023). O'RMON-DALA EKOLOGIK OROMGOHLARIDA EKS KURSIYANI TASHKIL ETISH SHAKLLARI VA USULLARI. Talqin va tadqiqotlar, 1(26).
32. Usmanova, S. S. (2023). XALQARO EKO TURIZM BOZORI ISHTIROKCHILARI O 'RTASIDAGI O 'ZARO MUNOSABATLAR. Экономика и социум, (11 (114)-1), 399-402.
33. Usmonova, S. S. (2022). AQSH YAPONIYA FIRMALARIDA XODIMLARNI BOSHQARISH XUSUSIYATLARI. Экономика и социум, (12-2 (103)), 172-176.
34. Kulanova, D. A., & Usmanova, S. S. (2024). TURIZM SANOATIDA BOZOR SEGMENTATSIYASINI MEYORLASHTIRISHGA QARATILGAN TADBIRLAR. Educational Research in Universal Sciences, 3(4 SPECIAL), 256-260.

